

O'QUVCHI-TALABALARING MUSTAQIL ISHLARIDA VA FANLARNING NAZORATLARIDA CROSSVORDNING O'RNI

*Shodiyev Furkat Davranovich, dotsent, texnika fanlari nomzodi,
Xushvaqova Ozoda Abdurasul qizi, Tasviriy san'at va
muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi,
Navoiy davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sohasida ilg'or pedagogik texnologiyaning elementi sifatida crossvord usulini qo'llash haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, masofaviy ta'lim, krossvord, xotira, fikrlash, izlanish, anglash.

Аннотация: В статье рассматривается использование кроссвордов как элемента передовых педагогических технологий в образовании.

Ключевые слова: процесс обучения, дистанционное обучение, кроссворд, память, мышление, исследование, понимание.

Abstract: The article discusses the use of crosswords as an element of advanced pedagogical technologies in education.

Key words: learning process, distance learning, crossword puzzle, memory, thinking, research, understanding.

KIRISH

Hozir kunda oliy ta'lim tizimidagi dolzarb muammolardan biri mustaqil ta'lim va uni tashkil etishdir. Mustaqil ta'lim, uni rejalashtirish, tashkiliy shakli va usullari, natijalarni kuzatish tizimi oliy ta'lim amaliyotidagi eng zaif nuqtalardan biri va pedagogik nazariyaning, ayniqsa, zamonaviy o'quv-uslubiy ta'limga nisbatan kam o'rganilgan muammolaridan biridir. Talabalarni mustaqil ishlashga va o'zini-o'zi nazorat qilishni o'rgatish kelajakda ularni professional va malakali yetuk kadr bo'lib yetishishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Juhonning yuqori reytingida turuvchi universitetlarning tajribasida mustaqil ta'limga alohida e'tibor qaratilgan. Mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirish natijasida talabalarda mustaqil ishlash ko'nikma va malakalari rivojlanadi, Mustaqil ta'lim natijasida egallangan bilim malaka va ko'nikmalar kishiga bir umr hamrohlik qiladi. Kishining bilimga ega bo'lishi barobarida uning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Mustaqil ravishda olingan bilimlar orqali to'plagan ma'lumotlarini tahlil qilishini o'rganadi, yanada ko'proq bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash,

ta'lim – tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bizning fikrimizcha, bola shaxsida o'yin va o'qish faoliyatlari parallel namoyon bo'ladi. Shuning uchun bolalar murakkab topshiriqlarga to'la vazifalardan ko'ra, o'yin faoliyatini afzal ko'radi.

Krossvord XX asrning boshlarida paydo bo'ldi va o'zining qiziqarlilik jozibasi bilan qisqa vaqt ichida butun dunyoga keng tarqaldi.

Krossvord so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, cross -" Krest "(+) va vord- "So'z" kabi so'zlarning birikmasi bo'lib, u boshqotirma ma'nosini anglatadi. Crossvord "o'zaro kesishuvchi" katakchalardan tuzilib, uni yechish qoidasiga ko'ra, bu katakchalarga so'zlar yozilishi va yozuvda umumiy katakchalarda bir xil harflar qatnashishi kerak.

Crossvordning gazeta sahifasida birinchi marta chop etilishi 1913 yilning 21 dekabriga to'g'ri keladi va bu kun birinchi gazeta crosvordining tug'ilish kuni sifatida Ginnes rekordlar kitobiga rasman kiritilgan. Bu crossvord AQSh da Artur Uinn tomonidan tuzilgan bo'lib "Nyu-York uorld" gazetasida e'lon qilingan.


Crossvord ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otgan va keyinchalik u boshqa nashriyotlarda ham e'lon qilingan. Kitob ko'rinishida crossvordlar to'plami birinchi bo'lib AQShda 1923 yilda 750 ming nusxada nashr qilindi va ular bir necha kundayoq sotilib ketdi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ushbu maqolada ilg'or pedagogik texnologiyaning elementi sifatida **crossvord usulini** qo'llash fikri ilgari surilgan va crossvord usulini qo'llashning na'munasi sifatida Muhandislik grafikasidan krossvord hamda uning yechimlari bilan birga keltirilgan.

Muhandislik grafikasi

Кроссворд



Ushbu Muhandislik grafikasi crossvordi «Hot Potatoes» programmasida tuzildi.

ENIGA

- 1.Turli texnik buyumlarni yasash uchun mo‘ljallangan chizmalarni bajarish qaysi chizmachilik orqali o‘rganiladi?
- 6.Har qanday detal nechta ko‘rinishga ega?
- 8.Narsalarni tekislikda tasvirlash usullari qanday chizmachilik orqali o‘rganiladi?
- 9.Binoning olddan ko‘rinishi qanday nomlanadi?
- 11.To‘g‘ri doiraviy konus bitta yasovchisiga parallel tekislik bilan kesilsa, qanday egri chiziq hosil bo‘ladi?
- 13.Bino devorlarining yer osti qismlari davomi nima deyiladi?
- 15.Detalning eng katta (balandlik, uzunlik, eni) o‘lchamlarini ko‘rsatuvchi o‘lchamlar nima deyiladi?
- 16.Narsaning aniq shakli va o‘lchamlarini to‘liq ko‘rsata oladigan tekislikdagi tasvir nima deyiladi?
- 17.To‘g‘ri doiraviy konus uchi orqali o‘tuvchi tekislik bilan kesilsa, qanday shakl hosil bo‘ladi?
- 19.To‘g‘ri doiraviy konusning barcha yasovchilarini kesib o‘tadigan tekislik

konus o‘qiga qiya qilib o‘tkazilsa, kesimda qanday chiziq hosil qilingan bo‘ladi?

BO‘YIGA

- 2.To‘g‘ri doiraviy konus o‘qiga perpendikulyar tekislik bilan kesilsa, qanday egri chiziq hosil bo‘ladi?
 - 3.Detalning V proyeksiya tekisligidagi ko‘rinishi qanday nomlanadi?
 - 4.Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalarqa qanday o‘lchov birligi ishlatiladi?
 - 5.To‘g‘ri doiraviy konus ikkita yasovchisiga parallel tekislik bilan kesilsa, qanday egri chiziq hosil bo‘ladi?
 - 7.Egri chiziqning hamma nuqtalari bitta tekislikka tegishli bo‘lsa, u qanday chiziq deyiladi?
 - 8.Binoning gorizontal qirqimi nima deyiladi?
 - 10.Egri chiziqning hamma nuqtalari bitta tekislikka tegishli bo‘lmasa, u qanday chiziq deyiladi?
 - 12.Yer sathini tasvirlash chizmalari qanday chizmalar deyiladi?
 - 14.Detalning H gorizontal proyeksiya tekisligidagi ko‘rinishi qanday nomlanadi?
 - 18.Detalning W profil proyeksiya tekisligidagi ko‘rinishi qanday nomlanadi?

XULOSA

Xulosa o‘rnida shularni aytish joizki:

1. Crossvord o‘yin xarakteriga ega. Bu xususiyat mavzuni oson egallash imkonini beradi. Chunki insonning ruhiyati mavzuni o‘yin orqali qabul qilishga moyildir.
2. Crossvord xotirani chiniqtiradi.
3. Crossvord fikrlash doirasini kengaytiradi.
4. Crossvord anglash va fahmlash qobiliyatini rivojlantiradi.
5. Crossvord so‘z boyligini oshiradi.
6. Crossvord izlanuvchanlikni vujudga keltiradi.
7. Crossvord intelektual salohiyatni kengaytiradi.
8. Crossvord mustaqil fikrlash ko‘nikmasini hosil qiladi va shakllantiradi.
9. Crossvord bo‘s sh vaqt ni mazmunli o‘tkazish imkonini beradi.
10. Crossvord o‘quv jarayonida o‘quvchining olgan bilimini aniqlashning barcha nazorat bosqichlarida qo‘llanishi mumkin.
11. Crossvorddan talabaning mustaqil bilim olishini tashkil qilishda foydalanish mumkin.
12. Crossvord barcha fanlar bo‘yicha tuzilishi mumkin.

Agar crossvordlarning xususiyatlariga sinchkovlik bilan nazar solsak, biz ularni ta’limga qo‘llashning ko‘pgina ijobiy pedagogik tamonlarini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan:

- crossvord o‘quv jarayonida talabaning olgan bilimini aniqlashning barcha nazorat bosqichlarida (joriy, oraliq va yakuniy nazorot bosqichlarida) qo‘llanishi mumkin.
- talabaga mustaqil crossvord tuzish topshirig‘i berish mumkin. Bunday topshiriq talabani mavzuga oid adabiyotlarni ko‘rib chiqishga chorlaydi va bu talabada o‘z ustida mustaqil ishslash ko‘nikmasini shakllanishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. B.B.Saydaxmedov. Yangi pedagogik texnologiya. Toshkent. 1992.
2. Shodiyev F. D., Axmedov D. X. TEXNIKA OLIY TA’LIM TIZIMIDA FAN, TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI TO‘G‘RISIDA //Journal of Innovation, Creativity and Art. – 2023. – C. 153-155.
3. Shodiyev Furkat Davranovich. “CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI” FANIDAN TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA (KONCHILIK SOHASIDA). O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. (ISSN: 2181-3302). Aprel. 2023-yil 18-son. -C.986-991.
4. Badiyev M.M., Shodiyev F.D., Qurbanova M.Sh. MAKTAB O‘QUVCHILARIDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA TASVIRIY SAN’AT DARSALARIDA INTERFAOL O‘QITISH USULLARIDAN FOYDALANISH. “PEDAGOG” RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 6 – TOM 6 – SON / 2023 - YIL / 15 –IYUN. C.520-525.